**Abstract.** The article examines the main factors influencing the mechanical properties of steel. The role of the principal alloying elements in determining mechanical characteristics and in ensuring a high combination of properties is discussed. The relationship between the chemical composition of steel and its mechanical properties is established, and the influence of chemical elements on non-metallic inclusions and microstructure is investigated.

According to regulatory standards, 20GL grade steel is required to exhibit high strength, ductility, and impact toughness, which are essential for cast components of freight wagons. Key structural elements, such as side frames and bogie bolsters, are manufactured from 20GL steel. At present, improving the mechanical properties of this steel grade is a pressing scientific and practical task.

**Keywords:** tensile strength, ductility, impact toughness, non-metallic inclusions, microstructure, steel refining.

**Аннотация.** В статье проанализированы основные факторы, влияющие на механические свойства стали. Рассмотрена роль основных легирующих элементов в формировании механических свойств и их влияние на обеспечение комплекса высоких эксплуатационных характеристик. В ходе исследований установлена взаимосвязь между химическим составом стали и её механическими свойствами, а также изучено влияние химических элементов на неметаллические включения и микроструктуру.

Сталь марки 20ГЛ в соответствии с нормативными документами должна обладать высокой прочностью, пластичностью и ударной вязкостью, что является важным требованием для литых деталей грузовых вагонов. Такие основные конструктивные элементы, как боковая рама и надрессорная балка, изготавливаются из стали марки 20ГЛ. В настоящее время повышение механических свойств стали данной марки является актуальной научно-практической задачей.

**Ключевые слова:** предел прочности, пластичность, ударная вязкость, неметаллические включения, микроструктура, рафинирование стали.

## KIRISH

Temir yo'l transporti sanoatida quyma detallar (masalan, vagon aravachalari qismlari, tortuvchi xomut, avtoulagich korpusi va boshqalar) keng qo'llaniladi. Ushbu detallarining ishlash muddati va ishonchligi bevosita ularning kimyoviy tarkibi hamda mexanik xossalari bog'liq.

Materialning mexanik xossalari uning deformatsiya yoki sinish jarayonidagi xatti-harakatlarga chidamliligini tavsiflaydi. Bunday xossalarga qattqlik, plastiklik, mustahkamlik, elastiklik, zarbiy qovushqoqlik, charchashga chidamlilik va boshqalar kiradi.

Mustahkamlik — bu materialning siqilish, cho'zilish, buralish va egilish jarayonlarida sinish va deformatsiyaga qarshilik ko'rsatish qobiliyatidir. Mustahkamlikni ifodalash uchun ikki asosiy parametrdan foydalaniladi: oquvchanlik chegarasi ( $\sigma_T$ ) va mustahkamlik chegarasi ( $\sigma_B$ ) [1].

Plastiklik — materialning tashqi kuch ta'siri ostida sinmasdan yoki yorilmasdan deformatsiyalanish qobiliyatidir. Plastiklik asosan nisbiy uzayish va nisbiy torayish ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi [1].

Zarbiy qovushqoqlik — metallar va qotishmalarning zarba yuklariga qarshilik ko'rsatish xossasidir. Ushbu xossani aniqlashda standart o'lchamdagi namunalari ГОСТ 9454–78 talablari asosida tayyorlanadi; namunada kuchlanish konsentratori vazifasini U yoki V shaklidagi ariqcha bajaradi [1].

Yuqori zarbiy qovushqoqlik (turli qotishma guruhlar uchun 20–80 J/sm<sup>2</sup> oralig'ida) asosan yuqori plastiklikka ega bo'lgan bir fazali metallar va qotishmalarda kuzatiladi. Bunday metallar tarkibida nometall qo'shimchalar miqdori kam bo'ladi yoki ular optimal o'lcham va taqsimotga ega bo'ladi, hatto tuzilishi bir xil bo'lmagan qotishmalarda ham. Shu bilan birga, legirlash jarayoni ayrim hollarda zarbiy qovushqoqlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Zarbiy qovushqoqlikni oshirish mo'rt ortiqcha fazalarni bartaraf etish orqali amalga oshiriladi [2].

Zarbiy qovushqoqlik sinovi ushbu ko'rsatkichning o'zgaruvchanligi sababli alohida ahamiyatga ega, chunki u ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Jumladan, kimyoviy tarkib, nometall qo'shimchalar, termik ishlov berish, mikrostruktura, quyma nuqsonlar va boshqa omillar zarbiy qovushqoqlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi [3]. Metall sifatining muhim mezonlaridan biri uning sovuqqa chidamliligi, ya'ni yuqori plastiklik va past haroratlarda zarbiy qovushqoqlikni saqlab qolish qobiliyatidir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

V. V. Lunev va V. V. Averin tadqiqotlariga ko'ra, metallning sifat darajasi, ya'ni uning yuqori mexanik xossalari hamda sovuqqa chidamliligi, tarkibidagi oltingugurt, fosfor, kislorod, azot, vodorod va boshqa zararli aralashmalar bilan ifloslanish darajasi bilan belgilanadi [4].

Fosfor po'lat xossalari salbiy ta'sir ko'rsatuvchi zararli aralashma hisoblanadi. N. Q. Tursunov tadqiqotlariga ko'ra, fosfor konsentratsiyasi oshishi natijasida po'latning mustahkamligi va mo'rtligi, shuningdek, sovuqqa chidamlilik chegarasi ortadi, plastiklik va zarbiy qovushqoqlik esa pasayadi [5].

Po'latdagi erigan oltingugurt ham fosfoga o'xshash ta'sir ko'rsatadi. V. V. Lunev va V. V. Averinlarning fikriga ko'ra, birlamchi donalar chegarasida, ayniqsa alyuminiy bilan oksidlangan hollarda, metall bo'lmagan qo'shimchalar hosil bo'ladi. Bu holat metall bog'lanishlarni zaiflashtirib, po'latning qovushqoqlik va plastiklik xossalari pasayishiga olib keladi [4]. Ushbu olimlarning ta'kidlashicha, oltingugurt atomining temir atomiga nisbatan katta radiusga (0,104 nm) ega bo'lishi temir panjarasida ichki kuchlanishni oshiradi, bu esa mustahkamlikni ko'paytirib, plastiklikni kamaytiradi [4].



Legirlash jarayoni zarbiy qovushqoqlikni kamaytirishi mumkin. Zarbiy qovushqoqlikni oshirish mo'rt ortiqcha fazalarni bartaraf etish orqali amalga oshiriladi [2].

M. A. Smirnov, V. M. Schastlivtsev va L. G. Zhuravlevlarning "Po'latni termik qayta ishlash asoslari" nomli darsligida ferrit-karbid strukturaga ega po'latlarda mustahkamlik perlit koloniyalari hamda ferrit donalarini maydalash orqali oshirilishi ko'rsatilgan. Ushbu strukturaviy parametrlar austenit donasi o'lchamiga bevosita bog'liq bo'lib, termik ishlov jarayonida yuqori mexanik xossalarga erishish uchun mayda austenit donalarini hosil qilish zarurligi ta'kidlangan [6].

Mazkur olimlarning fikricha, ferrit po'lat strukturasi yumshoq va egiluvchan komponent sifatida namoyon bo'ladi. Uning xossalari asosan uglerod miqdori, qotishma elementlari hamda ferrit donasi hajmiga bog'liq. Uglerod va azot temir bilan oraliq qattiq eritmalar hosil qiluvchi elementlar bo'lib, ferritni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon ularning dislokatsiyalar bilan kuchli o'zaro ta'siri va mustahkamlanishi orqali amalga oshadi [6].

O. T. Toirov, N. Q. Tursunov va L. A. Kuchkorovlar ilmiy maqolalarida "sovuq" shlakning mavjudligi po'latni induksion pechda eritish jarayonida tozalovchi jarayonlarning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatishgan. Shu munosabat bilan, so'nggi yillarda po'latga pechdan tashqari ishlov berishning turli usullari ishlab chiqilgan bo'lib, ular induksion eritish jarayonidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shulardan biri kovshdagi po'latni nodir yer metallari bilan modifikatsiyalash usulidir.

Ishqoriy-yer metallaridan foydalanish po'latning zarbiy qovushqoqligini, shuningdek, nometall qo'shimchalar bo'yicha tozaligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Kovshdagi po'latni ishqoriy-yer metallari bilan bir qatorda nodir yer metallari bilan ham qo'shimcha modifikatsiyalash po'lat sifatining yanada yaxshilanishini ta'minlaydi [7].

Metallni eritish jarayonida defosforatsiya shikhtaning erish bosqichida amalga oshiriladi, bunda metall harorati nisbatan past bo'ladi. N. Q. Tursunovning boshqa ilmiy ishlarida metallidagi fosfor miqdorini kamaytirish uni oksidlash va shlakka o'tkazish orqali amalga oshirilishi tadqiq etilgan. Reaksiya mahsulotlari faolligini kamaytirish hamda fosfor pentoksidi ( $P_2O_5$ ) bilan barqaror fosfatlar hosil qilish maqsadida shlak tarkibiga ohak (CaO) kiritiladi. Shu sababli, po'latdagi fosforni pechlarda chiqarib tashlash yuqori ohak miqdoriga ega shlaklar yordamida amalga oshiriladi [8].

Ishlab chiqarish sharoitida 20ГЛ markali po'latni eritish jarayonida metall haroratining defosforatsiya jarayoniga ta'siri o'rganilgan. Eritma harorati 1525 °C dan 1650 °C gacha o'zgartirilgan. Metall haroratining oshishi bilan metallidagi fosfor miqdori ortib, shlakdagi fosfor miqdori kamaygan hamda fosforning taqsimlanish koeffitsienti pasaygan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, eng maqbul natijalar 1525 °C haroratda kuzatilgan [8].

A. N. Avdeeva, O. T. Toirov va N. Q. Tursunov o'z tadqiqotlarida ITPda eritish texnologiyasining yangi konsepsiyasini taklif etishgan. Ushbu konsepsiya shlakdan samarali foydalanish, uning miqdorini oshirish, shlak va metallni qo'shimcha aralashtirish hamda ularning o'zaro ta'sir qilish vaqtini uzaytirish orqali metallni fosfor, oltingugurt va boshqa zararli aralashmalardan samarali tozalashni ta'minlaydi.

ITPda po'lat eritishda shlakning yuqori rafinirlash qobiliyatiga erishish uchun erish harorati pasaytirilgan maxsus shlak aralashmalarini tanlash, metall eritmasini ma'lum haroratda shlak ostida muayyan vaqt ushlab turish, shuningdek, tekis metall meniskini hosil qilish (masalan, induktor chegarasidan tashqarida metall sathini oshirish yoki menisk balandligini kamaytirish uchun induktorning yuqori o'ramlarini o'chirish orqali) mumkinligi ko'rsatilgan. Natijada, fosforsizlantirish darajasi 65 % gacha, oltingugurtsizlantirish darajasi esa 60 % gacha yetkazilgan [9].

N. Q. Tursunov, A. E. Semin va E. A. Sanokulovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 20ГЛ markali po'latga induksion tigelli pechda nodir yer metallari qo'shilishi natijasida metall tarkibidagi oltingugurt miqdori 0,004 % gacha, umumiy kislorod miqdori esa 0,0021 % gacha kamaygani aniqlangan. Shu bilan birga, donalar chegarasida joylashgan sulfid qo'shimchalarning hosil bo'lishi bartaraf etilgan.

Nodir yer metallari qo'shilganda sulfid qobiq ichida joylashgan oksidlar, ya'ni globulyar oksisulfid qo'shimchalari hosil bo'ladi. Bunday qo'shimchalar metallning mo'rtlashishiga boshqa turdagi nometall qo'shimchalarga nisbatan ancha kam ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, nodir yer metallari qo'shilishi metallning makro- va mikrostrukturasi yaxshilanishiga, hamda uning mexanik xossalari oshishiga olib keladi [10].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Eritish jarayonlari "Otto Junker" firmasining olti tonnalik induksion tigelli pechida (ITP-6) amalga oshirildi (1-rasm). ITP-6 pechining texnik tavsifi 1-jadvalda keltirilgan [11].



1-rasm. Induksion tigel pechining umumiy ko'rinishi

1-jadval. ITP-6 texnik xususiyatlari [5].

Parametr nomi	Me'yor
Sig'imi	6 t
Nominal quvvat	4,8 MV·A
Tok chastotasi	500 Gs
Tigelning ichki diametri	920 mm
Futerovka qalinligi	125 mm
Elektr energiyasining solishtirma miqdori	505 kVt/soat
Futerovka	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> asosida

Metallografik tadqiqotlar quyma metall kesim namunalari va spirtidagi 3% li HNO<sub>3</sub> eritmasi bilan ishlov berilgandan so'ng o'tkazildi. Metallning mikrostrukturasi aniqlash uchun "Olympus BX 41M-LED" modulli mikroskopidan foydalanildi (2-rasm).



2-rasm. "BX 41M-LED" modulli mikroskopi

3-rasmda po'latning kimyoviy tarkibini aniqlash uchun ishlatilgan MCA V5 markali optik emission spektrometri ko'rsatilgan.



3-rasm. Optik emission spektrometr



ГОСТ 32400-2013 normativ hujjat bo'yicha 20ГЛ markali po'latning kimyoviy tarkibi va mexanik xossalari 2-3-jadvallarda keltirilgan [12].

2-jadval. 20ГЛ markali po'latning kimyoviy tarkibi, (% mass.)


C	Si	Mn	Al	P	S	Cr	Ni	Cu	Fe
				ko'p emas					
0,17-0,25	0,30-0,50	1,10-1,40	0,020-0,060	0,020	0,020	0,30	0,30	0,60	qolgani

3-jadval. 20ГЛ markali po'latning mexanik xossalari

Oquvchanlik chegarasi $\sigma_r$ , MPa	Mustahkamlik chegarasi $\sigma_b$ , MPa	Nisbiy uzayish $\delta$ , %	Nisbiy torayish $\psi$ , %	Zarbiy qovushqoqlik KCV <sup>60</sup> , kJ/m <sup>2</sup>
kam emas				
343	510	18	30	200


## TAHLIL VA NATIJALAR

20ГЛ markali po'lat qotishmasining kimyoviy tarkibi hamda mexanik xossalari bo'yicha olingan namunalar tahlil natijalari ko'rib chiqildi. 4-rasmda mexanik xossalarning po'lat tarkibidagi uglerod miqdoriga bog'liqligi aks ettirilgan.



4-rasm. Mexanik xossalarning uglerod miqdoriga bog'liqligi<sup>1</sup>

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, quyma po'latlarda uglerod miqdori ortishi bilan ularning mustahkamligi ortadi, plastikli va zarbiy qovushqoqligi esa kamayadi. Uglerodning 0,19% dan 0,25% gacha ortganda, po'latning nisbiy uzayishi 30% dan 24% gacha sezilarli darajada kamayadi va mustahkamlik chegarasining qiymati biroz oshadi.




5-rasmda mexanik xossalarning metall tarkibidagi kremniy miqdoriga bog'liqligi ko'rsatilgan.

5-rasm. Mexanik xossalarning kremniy miqdoriga bog'liqligi<sup>2</sup>

1 Mualliflar ishlanmasi  
2 Mualliflar ishlanmasi

5-rasmdan ko'rinib turibdiki, kremniy miqdorining 0,33-0,46% oralig'ida ortishi bilan nisbiy uzayish va zarbiy qovushqoqlik qiymati kamayadi, mustahkamlik chegarasi esa oshadi.


6-rasmda mexanik xossalarning marganes miqdoriga bog'liqligi ko'rsatilgan.



6-rasm. Mexanik xossalarning marganes miqdoriga bog'liqligi<sup>3</sup>

6-rasmdan ko'rinib turibdiki, marganes miqdori 1,1% dan 1,35% gacha oshishi bilan nisbiy uzayish kamayadi. Marganes ham zarbiy qovushqoqlikning pasayishiga olib keladi. Lekin u po'latning mustahkamlik chegarasini oshiradi.


7-rasmda alyuminiyning po'latning mexanik xossalariga ta'sirining bog'liqligi keltirilgan.



7-rasm. Mexanik xossalarning alyuminiy miqdoriga bog'liqligi<sup>4</sup>

7-rasmdan ko'rinib turibdiki, alyuminiy miqdori yuqori bo'lganda po'latning mexanik xossalari darajasi yuqori qiymatlarga erishadi. Alyuminiy bilan oksidlanganda alyuminiy miqdori normativ hujjat bo'yicha 0,04-0,06% eng yuqori darajada bo'lishi kerak, shunda alyuminiy po'latning mexanik xossalariga hech qanday zararli ta'sir ko'rsatmaydi.

8-rasmda umumiy oltingugurt va fosfor tarkibining ta'siri ko'rsatilgan.



8-rasm. Oltingugurt va fosforning po'latning mexanik xossalariga ta'siri<sup>5</sup>


3 Mualliflar ishlanmasi

4 Mualliflar ishlanmasi

5 Mualliflar ishlanmasi




8-rasmdan ko'rinib turibdiki, oltingugurt va fosfor zararli aralashmalar bo'lib, zarbiy qovushqoqlikni va nisbiy uzayishni sezilarli darajada kamaytiradi. Ayniqsa, umumiy oltingugurt va fosfor miqdori 0,040% dan 0,050% gacha oshganda zarbiy qovushqoqlik 350 KJ/m<sup>2</sup> dan 230 KJ/m<sup>2</sup> gacha kamayadi. 9-rasmda 20ГЛ po'latidagi nometall qo'shimchalar tasvirlangan.



9-rasm. 20ГЛ po'latidagi nometall qo'shimchalar

10-rasmda 20ГЛ markali po'latning termik ishlov berishdan keyingi mikrostrukturasi keltirilgan.



10-rasm. 20ГЛ markali po'latning normallashtirish va bo'shatishdan keyingi mikrostrukturasi (x100)

Metall mikrostrukturasi bir jinsli, ferrit–perlitli va mayda donali bo'lib, struktura tashkil etuvchilari bir tekis taqsimlangan. ГОСТ 5639-82 talablariga muvofiq donalar balli 8–9 ni tashkil etadi, bu esa ГОСТ 32400-2013 bo'yicha ruxsat etilgan darajaga (8 dan past emas) mos keladi [16].

Po'lat tarkibida uglerod miqdorining oshishi strukturada perlit ulushining ko'payishiga olib keladi. Bu holat oquvchanlik chegarasi va mustahkamlik chegarasining oshishi, plastiklik xossalari esa pasayishi bilan tavsiflanadi. Uglerod miqdori ortishi bilan zarbiy qovushqoqlik darajasi sezilarli bo'lmagan miqdorda kamayadi, bu esa po'latda perlit fraksiyasining ko'payishi bilan izohlanadi.

Metallni oksidsizlantirish maqsadida tarkibiga kremniy kiritiladi. Kremniy ferritdagi qattiq eritmaga o'tib, po'latning mustahkamlik xossalari oshiradi.

Marganes po'latga oltingugurtning zararli ta'sirini kamaytirish, ya'ni oltingugurtsizlantirish jarayonlarini ta'minlash maqsadida qo'shiladigan ferroqotishma hisoblanadi. U qisman ferritda, qisman sementit tarkibida eriydi hamda temir atomlari o'rnini egallashi orqali po'latning mustahkamligini oshiradi.

Shuningdek, marganes va kremniy qisman nometall qo'shimchalar shaklida, ya'ni shpinel tipidagi kompleks oksidlar (FeO·MnO) va silikatlar (2FeO·SiO<sub>2</sub>, 2MnO·SiO<sub>2</sub>) tarkibiga kirishi mumkin [13].

Alyuminiy po'latni oksidsizlantirishda eng samarali elementlardan biri bo'lib, donalarni oksidsizlantirish va maydalash orqali po'latning zarbiy qovushqoqligi hamda plastiklik xossalari yaxshilaydi. Bundan tashqari, alyuminiy azot bilan nitridlar (masalan, AlN) hosil qiladi. Taxminan 0,1 % miqdorda alyuminiy quyishdan oldin kovshga kiritiladi. Hosil bo'lgan alyuminiy oksidi va nitridi dispers zarralari austenit donalarining o'sishini cheklab, mayda donali po'lat olish imkonini beradi [13].

Fosfor metall matritsa xossalari, oltingugurt esa asosan sulfidlar orqali matritsaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Fosforning mo'rtlashtiruvchi ta'siri uchinchi elementlar mavjudligida yanada kuchayadi. Uglerod va marganes fosfor eritmadan donalar chegaralariga siqib chiqaradi, bu esa donalararo bog'lanishlarning sezilarli darajada zaiflashishiga, natijada plastiklik va zarbiy qovushqoqlikning pasayishiga olib keladi [4].

Fosforning salbiy ta'siri temir–fosfor fazaviy diagrammasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Fosfor austenitda 0,2 % gacha, ferritda esa undan ko'proq miqdorda eriydi va qattiq eritmani sezilarli darajada mustahkamlaydi. Po'latning plastiklik xossalari, ayniqsa past temperaturalarda, donalar chegaralari bo'ylab hosil bo'ladigan juda mayda fosfid ajralmalari tufayli pasayadi. Fosfor ta'sirida donalar chegaralarining mo'rtligi doimiy ravishda kuzatiladi, natijada zarbiy qovushqoqlik kamayadi [14].

Oltingugurt kontsentratsiyasining oshishi po'latning sulfidli qo'shimchalar bilan ifloslanishiga olib keladi. Po'latning zarbiy qovushqoqligi va plastiklik xossalari pasayishi nafaqat nometall qo'shimchalar mavjudligi



bilan, balki sovutilish jarayonida austenit va ferrit donalari chegaralarida oltingugurt eruvchanligining o'zgarishi bilan ham izohlanadi [4].

Oksidli qo'shimchalarning asosiy qismi (endogen qo'shimchalar) oksidsizlantiruvchi elementlar qo'shilishi va suyuq po'latni sovutish jarayonida, jumladan kristallanish davrida hosil bo'ladi [15].

Ferrit donasi o'lchami materialning mustahkamligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Donalarni maydalash mustahkamlikni oshirish bilan birga egiluvchan–mo'rt o'tish haroratini pasaytiradi. Shu sababli, ferrit donalarini maydalash po'latni samarali mustahkamlash usullaridan biri hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, yuk vagonlari aravachalarining muhim qismlari uchun qo'llaniladigan 20ГЛ markali po'latning mexanik xossalari uning kimyoviy tarkibi hamda zararli aralashmalar bilan ifoslanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Xususan, oltingugurt va fosfor po'latning plastiklik, zarbiy qovushqoqlik va sovuqqa chidamlilik xossalari sezilarli darajada pasayishiga olib keladi, chunki ushbu elementlar nometall qo'shimchalar hosil qilib, kristallitlararo mo'rtlikni kuchaytiradi.

Uglerod va kremniy miqdorining ortishi po'latning mustahkamlik ko'rsatkichlarini oshiradi, biroq bu jarayon plastiklik va zarbiy qovushqoqlikning kamayishi bilan birga kechadi. Alyuminiy qo'shilishi esa donalarning dispersiyaviy mustahkamlanishini, oksidsizlanishini va maydalanishini ta'minlab, po'latning mexanik xossalari majmuasini yaxshilaydi.

Po'latning ishonchligini baholashda zarbiy qovushqoqlik eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, chunki u quyma nuqsonlariga, mikrostrukturaviy o'zgarishlarga hamda kuchlanish konsentratlariga eng sezgir parametrdir. O'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, zararli aralashmalar miqdori minimal bo'lgan va legirlash tizimi optimallashtirilgan po'lat yuqori mustahkamlik hamda ekspluatatsion ishonchlikni ta'minlaydi.

Shu munosabat bilan, po'latning kimyoviy tarkibini, oksidsizlantirish va modifikatsiyalash texnologiyalarini samarali boshqarish harakatlanuvchi tarkibiy detallar uchun zarur bo'lgan optimal mexanik xossalarga ega, ishonchli va xavfsiz quyma buyumlarni olishning muhim sharti hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Малеткина Т. Ю. Механические свойства металлов и сплавов и методы их определения: методические указания. – Томск: Издательство Томского государственного университета, 2015. – 27 с.
2. Новиков И. И., Золоторевский В. С., Портной В. К. и др. Металловедение: учебник: в 2 т. Т. 1. Основы металлостроения / под общ. ред. В. С. Золоторевского. – 2-е изд., испр. – М.: Издательский дом МИСиС, 2014. – 496 с.
3. Павлов А. В., Квеглис Л. И., Романова А. А., Рахадиллов Б. К., Жилкашинова А. М. Исследование отливок из стали 20ГЛ на предмет соответствия техническим требованиям железнодорожного транспорта // Сборник статей по материалам XLVII Международной научно-практической конференции «Инновации в науке». – Новосибирск: Издательство СибАК, 2015. – № 7(44). – С. 150–154.
4. Лунев В. В., Аверин В. В. Сера и фосфор в стали. – М.: Металлургия, 1988. – 256 с.
5. Турсунов Н. К. Исследование процессов рафинирования и модифицирования металла с целью совершенствования технологии выплавки стали 20ГЛ в индукционной тигельной печи и повышения её качества: дис. ... канд. техн. наук. – М., 2017. – 116 с.
6. Смирнов М. А., Счастливцев В. М., Журавлев Л. Г. Основы термической обработки стали: учебное пособие. – М.: Наука и технологии, 2002. – 519 с.
7. Тоиров О. Т., Турсунов Н. К., Кучкоров Л. А. Совершенствование технологии внепечной обработки стали с целью повышения её механических свойств // Universum: технические науки: электронный научный журнал. – 2022. – № 4(97). – URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13421>
8. Турсунов Н. К. и др. Совершенствование процесса дефосфорации стали в индукционных тигельных печах // Universum: технические науки: электронный научный журнал. – 2022. – № 6(99). – URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13899>
9. Авдеева А. Н., Тоиров О. Т., Турсунов Н. К. Разработка инновационной технологии производства высококачественной стали для литых деталей подвижного состава железнодорожного транспорта // Центральноазиатские научные исследования. – 2022. – Т. 2. – № 4. – ISSN 2181-2489.
10. Турсунов Н. К., Семин А. Е., Санокулов Э. А. Исследование процессов дефосфорации и десульфурации при выплавке стали 20ГЛ в индукционной тигельной печи с дальнейшей обработкой в ковше с использованием редкоземельных металлов // Чёрные металлы. – 2017. – № 1. – С. 33–40.
11. Турсунов Н. К., Семин А. Е., Санокулов Э. А. Исследование процессов дефосфорации и десульфурации при выплавке стали 20ГЛ в индукционной тигельной печи // Сборник трудов. – М.–Электросталь, 2016. – С. 272–276.
12. ГОСТ 32400–2013. Рама боковая и балка надрессорная литых тележек железнодорожных грузовых вагонов. – М.: Стандартинформ, 2013.
13. ГОСТ 5639–82. Стали и сплавы. Методы выявления и определения величины зерна. – М.: Издательство стандартов, 1982.



14. Новиков И. И., Золоторевский В. С., Портной В. К. и др. *Металловедение: учебник: в 2 т. Т. 2. Термическая обработка. Сплавы* / под общ. ред. В. С. Золоторевского. – 2-е изд., испр. – М.: Издательский дом МИСиС, 2014. – 528 с.
15. Семин А. Е., Турсунов Н. К., Косырев К. Л. *Инновационное производство высоколегированной стали и сплавов: теория и технология выплавки стали в индукционных печах: учебное пособие.* – М.: Издательский дом НИТУ «МИСиС», 2017. – 166 с.
16. Поволоцкий Д. Я., Рошин В. Е., Рысс М. А., Строганов А. И., Ярцев М. А. *Электрометаллургия стали и ферросплавов: учебник для вузов.* – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Metallurgy, 1984. – 568 с.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)